

Tursunov Diyor Sunnatovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktab menejmenti kafedrasи mudiri, dotsent taqrizi ostida

PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISHDA METODIKA TUSHUNCHASI

Anorboyeva Xulkar O'ktam qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi magistranti

93 304 85 35

Annotation: ushbu maqolada milliy va jahon ta'lif tizimidagi ilg'or g'oyalarning uyg'unligi, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasi, zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiyalar taraqqiyotini o'ziga aks ettirib, hozirgi zamon pedagogika fanining so'nggi yutuqlari hamda uzoq yillar olib borgan ilmiy kuzatish hamda metodika haqida tushunchalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: metod, metodika, metodologiya, pedagogika fanlarini o'qitish, oliy ta'lif, fan, ilmiy faoliyat.

KIRISH.

Jahondagi oliy ta'lif o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Zamonaviy oliy ta'lif tizimini kreativ yondashuv asosida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish mexanizmlarini va ularni amaliyotga joriy etishning innovatsion tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan oliy ta'lif tizimida o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishning innovatsion texnologiyalarini yaratish, yangi bilimlarni yaratuvchi zamonaviy pedagogik jarayonlar asosida raqobatbardosh mutaxassiskadrlarlarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda oliy ta'lif tizimini modernizatsiyalash hamda rivojlangan mamlakatlar ta'lif standartlari talablariga har tomonlama javob beradigan raqobatbardosh, kreativ fikrlovchi mutaxassiskadrlarlarni tayyorlashga qaratilgan o'qitish jarayonini takomillashtirish zaruratinu yuzaga kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo'nalishlarini aniqlash, ayniqsa, oliy ta'lif tizimida o'quvtarbiya jarayonini sifatli tashkil etish dolzarb hisoblanadi. 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida oliy ta'lif sifatini oshirish va olim ta'lif qamrovini kengaytirish, davlat oliy ta'lif muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, salohiyatli oliy ta'lif muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kiritish, erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygochlarga o'qishga yuborish ko'laminik ikki baravarga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan.¹

Pedagogika fani o'qituvchilarining mavjud amaliy tajribalari, shuningdek, oliy o'quv yurtlari didaktikasi bo'yicha individual tadqiqotlar pedagogika o'qitish metodikasi bo'yicha nazariy qoidalar, tamoyillar, qoidalar va tavsiyalarni tizimlashtirish imkonini berdi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonuni hujjatlar to'plami – T.; 2022 – b.23.

Pedagogika fan sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilalar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“**Metodika**” tushunchasi turli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liklikda qo'llanilib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatları, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, “O'quv fanlarini o'qitish metodikasi ma'lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog'liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir”².

Metodika tushunchasi yurtimizda ilmiy doirada keng qo'llanib kelinadi. Bundan tashqari u bilan yonma-yon **usul, uslub** kabi o'zbekcha muqobillari ham ishlatiladi. Bizning nazarimizda ilmiy doirada xalqaro so'z bo'lgan METODIKA atamasi qo'llangani maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan qarashlarimizda metodika so'zidan foydalanamiz.

Metodika tushunchasini o'rganishdan avval uning negizini tahlil qilib ko'rsak. **Metod** o'zi nima? **Metod** bu biror **maqsadni amalga oshirish uchun** foydalaniladigan **yo'l, usuldir**. Aslida, kundalik hayotimizda har sohada, har soniyada undan foydalanamiz. Misol uchun, har kuni ertalab ishga borishimiz kerak. Ishga borish bizning bosh maqsadimiz. Yo'lga chiqishdan avval ishga QANDAY qilib yetib olishimiz haqida o'yaymiz. Avtobusda boramizmi yoki taksi olamizmi, balki piyoda borgannimiz ma'quldir. Demak birgina maqsadimizga uchta usulni qo'llashimiz mumkin bo'ladi.

Asosiy maqsadning kichik qismlari ham borki, yuqoridaq misolda ko'rishimiz mumkin. Ishga tezroq borishimiz zarurmi, yo'l haqi qimmatga tushmasligi kerakmi yoki bosib o'tilajak yo'l salomatligimiz uchun foydali bo'lsinmi? Demak, **maqsadga ko'ra** eng kerakli va to'g'ri **usulni tanlayshimiz** lozim bo'ladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, metodika bu dars jarayonidagi turli maqsadlarga eltuvchi yo'llar, uslublar majmuasi bo'lib, uning o'qituvchi oldiga qo'yadigan savoli o'quvchi o'rganayotgan materialni qay darajada muvaffaqiyatli o'zlashtira olashi va rivojlantirishi demakdir.

G.M.Kodjaspirova, A.Yu.Kodjaspirov larning fikricha, “O'qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir”³.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'qitish metodikasiga qo'yiladigan zaruriy talablarga quyidagilar kiradi:

- 1)aniqlik;
- 2)asoslanganlik;
- 3)rejalashtirilgan harakatning maqsad va vazifalarga mosligi;
- 4)qayta ishlab chiqishga yo'nalganlik;
- 5)hayot bilan uyg'unlik;
- 6)natijaviylik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, o'qitish metodikasi o'zida quyidagilarni aks ettiradi:

- ta'limning maqsad va vazifalarini
- ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, tashkiliy;
- ta'limning qonuniyat va tamoyillarini;
- ta'lim mazmunini;
- ta'limni tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllarini;

² Столяренко А.М. С81 Психология и педагогика: Учеб.пособие для вузов. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. - 423 с. ISBN 5-238-00259-9

³ Коджаспирова Г. М., Коджаспиров А. Ю. Педагогический словарь. – Academia, 200

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

- ta'limning umumiy va xususiy metodlarini;
- o'quv vositalari;
- o'qitish natijasini.

Metodologiya (yunoncha. methodos — nazariya, ta'limot, bilish yoki tadqiqot yo'li va logos — so'z, tushuncha):

- 1) amaliy va nazariy faoliyatni qurish va tashkil etish yo'llari va prinsiplar tizimi;
- 2) bilishning ilmiy metodi to'g'risidagi ta'limot;
- 3) u yoki bu fanda qo'llaniladigan metodlar yig'indisi ma'nolarini anglatadi.

Pedagogika fanining metodologiyasi — bu pedagogik borliqni o'zgartirish va bilish jarayonlarini shakllari, metodlari va prinsiplari to'g'risidagi ta'limot. Fan metodologiyasi tadqiqot komponentlarini tavsiflab, tadqiqot vazifalarini hal etish jarayonida harakatlar ketma-ketligi va bosqichlari to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirib, tadqiqotning metod hamda vositalari yig'indisini, vazifalarini, tadqiqot obyekti va predmetini tavsiflaydi.

Demak, pedagogika fanini o'qitish metodikasi metodologiyasi fan metodologiyasining falsafiy va maxsus-ilmiy darajalariga asoslanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, metodologiyaning barcha darajalari o'zaro bog'liq va bir-biriga bo'ysunadi, shuning uchun ular yaxlit tizimni tashkil qiladi. Ayrimhollarda o'quvchilar yangi bilimga tegishli o'tilgan mvzuni qaramay, ongi ravishda yangi materiallarning yengil –yelp o'zlashtirishga harakat qiladi. Bu o'zlashtirilgan yengil – yelpi bilimlar tez kunda o'quvchilarning xotirasidan chiqib ketadi. O'rganilgan qoidalarni bilish, ularni tushuntira olish, yangi bilimlar asosida masalalarni yecha olish, mashqlarni bajara olish, o'rganilgan materiallarni mustaqil ravishda takrorlay olish, yangi mavzuni o'zlashtirish uchun boshqa o'quv fanlardagi bilimlardan foydalana bilish, o'zlashtirilgan bilimlarni hayotda qo'llay bilish va o'z bilimlarini davriy ravishda chuqurlashtirish juda muhimdir.

O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik-materialsitik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.

Pedagogika fanlarini o'qitishda metodika tushunchasi, ta'lim jarayonida o'qituvchilar va talabalarning faoliyatini tashkil etishda qo'llaniladigan usul, vosita va strategiyalar to'plamidir. Bu tushuncha o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Metodika quyidagi asosiy jihatlarini o'z ichiga oladi:

1. O'qitish maqsadlari: Pedagogik maqsadlarni belgilash va ularga erishish yo'llarini aniqlash.
2. O'qitish usullari: Turli o'qitish usullarini tanlash va qo'llash, jumladan, amaliy ishlar, munozaralar, nazariy ta'lim va boshqalar.
3. O'quv materiallari: O'quv materiallarini tanlash va ular bilan ishlashning samarali usullarini belgilash.
4. O'quv jarayonini rejalashtirish: Darslar va o'quv jarayonini rejalashtirish, ularning strukturasi va vaqtisi.
5. O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtafigi interaktivlik: O'qituvchi va talabalar o'rtafiga samarali muloqot va o'zaro ta'sirni ta'minlash.
6. Natijalarni baholash: O'qitish samaradorligini baholash va kerak bo'lganda o'zgarishlar kiritish.

XULOSA

Pedagogika fanlarini o'qitishda metodika tushunchasi o'qitish jarayonini yaxshilash, talabalar bilan samarali ishlash va pedagogik maqsadlarga erishish uchun zarurdir. O'qituvchi metodikani to'g'ri qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. - T., 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017
4. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. Toshkent. 2001. 11-bet.
5. Azizzoxjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006. 15
6. Бадмаев, Б.Ц. Методика преподавания психологии [Текст]: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Б.Ц. Бадмаев. – М.: Владос, 2001. – 304 с.
7. Benjamin L. D. A Brief History of the Psychology Course in American High Schools // American Psychologist. — 2001. — November. — P. 951-960